

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLANING AQLIY TARBIYALASHDA
IJTIMOIY MUHITNING ROLI
РОЛЬ СОЦИАЛЬНОЙ СРЕДЫ В УМСТВЕННОМ ВОСПИТАНИИ
ДОШКОЛЬНИКОВ
THE ROLE OF THE SOCIAL ENVIRONMENT IN THE MENTAL
EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN**

Norqo'ziyeva M.A

JDPI Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi

Sanaqulova Xabiba Bahodir qizi

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Bola ijtimoiy muxit tasirida aqliy tomondan jivojlanib boradi. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolaning aqliy tarbiyalashda ijtimoiy muhitning roli xaqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy muxit, qobilyat, aqliy malaka va ko'nikmalar, mehnat tarbiyasi, mustaqillik, faollik, tartiblilik, javobgarlik, mas'uliyatlilik.

Аннотация: Психологическое развитие ребенка находится под влиянием социальной среды В статье рассматривается роль социальной среды в умственном воспитании дошкольников.

Ключевые слова: социальная среда, способности, умственные способности и умения, трудовое воспитание, самостоятельность, активность, порядок, ответственность, подотчетность.

Resume: The psychological development of a child is influenced by the social environment The article examines the role of the social environment in the mental education of preschoolers.

Key words: social environment, abilities, mental abilities and skills, labor education, independence, activity, order, responsibility, accountability.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach ijtimoiy hayotimizning har bir sohasida bo'layotgan o'zgarishlar natijasida ta'lim tizimida ham yangiliklar isloh qilinmoqda, ta'lim tarbiyaning maqsad va vazifalari mazmuni yangilanmoqda. Pedagogika tadqiqotlarning ko'lamini kengaytirildi, milliy pedagogika, meros chuqur o'rganilib,

shaxsga ta'lim berish va uni tarbiyalash borasidagi jahon tajribalari yutuqlaridan milliy xususiyatlarga va iqlim sharoitga tayangan holda foydalanish borasidagi izlanishlar yuzaga keldi. Ayniqsa, ta'lim tizimini birinchi bosqichi bo'lgan maktabgacha tarbiya tizimini ham tubdan qayta qurish dolzarb muammo bo'lib hisoblanadi. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda aqliy sifatlaridan: mustaqillik, faollik, tartiblilik, javobgarlik, mas'uliyatlilik kabilarni shakllantirishdir.

Bola ijtimoiy muxit tasirida aqliy tomondan jivojlanib boradi. Tevarak atrofdagi kishilar bilan muomila qilish jarayonida u tilni va u bilan birga tarkib topgan tushunchalar sistemasini o'zlashtiradi . Natijada maktabgacha tarbiya yoshidayoq bola tilni shunchalik egallab oladiki , undan muomila vositasi sifatida erkin foydalana oladigan bo'lib qoladi.

Aqliy rivojlanish fikrning kengligiga voqealarning har xil bog'lanishlarda , munosabatlarda ko'ra bilish umumlashtirish qobiliyatida namoyon bo'ladi .

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi faoliyati jarayonida dastlabki muomilada bo'lish narsalar bilan bajariladigan faoliyat natijasida keyin esa o'quv ,mehnat samarali faoliyatlar jarayonida amalga oshirib boriladi. Bolalarning aqliy rivojlanishiga talim va tarbiya samaraliroq tasir etadi xozirgi zamon pedagogika fani bilimlar sistemasini o'zgartirib olish ularni jamg'arish ijoboy tafakkurni rivojlantirish xamda yangi bilimlar xosil qilish uchun zarur bo'lgan bilim faoliyati usullarini egallab olishni aqliy rivojlanishning asosiy ko'rsatgichlari deb xisoblaydi.

Olimlar aqliy rivojlanish va aqliy tarbiyaga oid ko'gina masalalarni tadqiq etmoqdalarki , bu maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar aqliy tarbiyasibni asosi bo'lgan sensor tarbiyaning mazmun va metodini ishlab chiqish uchun zarurdir; bolalarni ko'rgazmali- xarakatli , ko'rgazmali- obrazli va tushunchali – mantiqiy tafakkurini shakllantirish tadqiq etilmoqda , ularning bilish qobiliyatlarini shakllantirishning o'ziga xos tomonlarini aniqlamoqda .

Bolalarning bilimlarini egallab olishlari , ularning aqliy faolligini rivojlantirish mustaqillik aqliy malaka va ko'nikmalarni egallab olishlari ularning

maktabda muvaffaqiyatli o'qishi va bo'lajak mehnat faoliyatiga tayyorlanishida manba bo'lib xizmat qiladi .

Maktabgacha yosh davrida bola xar kuni o'zi uchun notanish bo'lgan narsa va xodisalarga duch keladi. N. Tolstoy maktabgacha tarbiya yoshi haqida shunday deb yozadi; « Men xazirda o'zimda bor bo'lgan xamma narsani o'sha yoshlik chog'imda egallab olganmanki , egallaganda xam shunchalik ko'p , shunchalik tez egallaganmanki , butun qolgan xayotimda bu egallagan narsamning yuzdan birini xam egallaganim yo'q.Besh yoshli boladan mengacha atiga bir qadam . Yangi tug'ulgan chaqaloqdan besh yoshli bolagacha esa masofa juda uzoq.»

Biroq tegishli raxbarlik bo'lmasa , bilim va tasavvurlar tartibsiz bir tarzda to'planib boradi; ular yuzaki ko'pchilik xolda xato xam bo'lishi mumkin . Pedagogning vazifasi bolalardagi bilimlarni muntazam ravishda oshirib borish , ularni tartibgasolish,aniqlashtirishdir.Bilimlarni egallab borish natijasida bolaning shaxsi xam shaklanib boradi.Bola sanatning xar hil turlari to'g'risida tasavvur va tushunchalarni egallab boradi.

Bolalarda mehnat tarbiyasini tashkil etish orqali alqiyqobiliyatlarni shakllanganlik holatini aniqlash maqsadida tajriba ishlarini olib brogan. Tajriba davomida aniqlangan natijalardan quyidagicha xulosa qilish mumkin.

1. Mashg'ulotlarda bolalar mehnatini tashkil etish orqali ularda ijodkorlik tashabbuskorlik yaratuvchanlik kabi qobiliyatlarni shakllantirish mehnatga qiziqishini tarbiyalash mumkin.

2. Mashg'ulotlar mehnat tarbiyasi orqali olib borilganda bolalardaijodkorlik tarkib topadi, ularda o'ziga ishonch ishiga qiziqish uyg'onadi.

3. Mashg'ulotlarga bolalar anglab yetadigan yo'nalishlarni tanlash ular o'ylagan fikrlarni, g'oyalarni tezroq amalga oshirishga ishtiyoq uyg'otadigan usullarni qo'llash juda muhim.

4. Mehnatga oid mashg'ulotlarda muntazam bilim va malakalar uzluksiz mehnat ko'nikmasi o'quv mahorati yaxshi shakllanib boradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki mehnat tarbiyasini tashkil etish orqali bolalarda aqliy tarbiyalashda zarur shart-sharoitlar yaratilishi ularda zarur ko'ikma va aqliyqobiliyatlarning yuksak darajada rivojlanishiga sabab bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.Олий таълим муассасалари педагогларининг креатив кобилиятларини ривожлантиришнинг мазмуни Г Хасанова - Academic research in educational sciences, 2021

Цитируется: 17 Похожие статьи Все версии статьи (3)

2.Хасанова, Г. И. Қ. (2021). Болага йўналтирилган таълимни амалга оширишда тарбиячининг касбий компетентсиясининг ахамияти. Academic research in educational sciences, 2(9), 1051-1056.

3. МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTLARIDA O'YIN TURLARINING MAZMUNI

M Norquziyeva - Мактабгача таълим журнали, 2021

4.SHARQ MUTAFAKKIRLARINING OILAVIY MUNOSABATLARNI TARKIB TOPTIRISHGA OID QARASHLARI

M Norquziyeva - Мактабгача таълим журнали, 2021

5.МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ YOSHIDAGI BOLALARNING МАКТАВ ТА'ЛИМИГА AXLOQIY TAYYORGARLIGINING MEZONI

M Norquziyeva - Мактабгача таълим журнали, 2021

6.МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ YOSHIDAGI BOLALARNING МАКТАВ ТА'ЛИМИГА AXLOQIY TAYYORGARLIGINING MEZONI

M Norquziyeva - Мактабгача таълим журнали, 2021

Все версии статьи (27)

7.THE CURRENT STATE OF THE PROBLEM OF THE FORMATION OF STABILITY IN THE TEACHING PROFESSION

M Norkuzieva - Mental Enlightenment Scientific-Methodological ..., 2021

8.БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ КАСБИЙ БАРҚАРОРЛИГИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ДЕФОРМАЦИЯЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ

MA Норқўзиева - Academic research in educational sciences, 2021